

ROSSIYA IMPERIYASI IQTISODIY SIYOSATINING SAMARQAND BOZORLARIGA TA’SIRI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)**Sayfullayev Shohzod Shavkat o‘g‘li***Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti magistranti***Sayfullayev Sherxon Bobosher o‘g‘li***Narpay tumani 38-maktab Geografiya fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining iqtisodiy siyosati va uning Samarqand bozorlariga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda imperiya ma’muriyatining savdo-sotiqni tartibga solish, soliq siyosati, transport infratuzilmasini rivojlantirish hamda ushbu jarayonlarning Samarqand bozorlarining faoliyatiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, bozorlarning iqtisodiy hayotdagi o‘rni, savdo aloqalari va rivojlanish xususiyatlari tarixiy manbalar asosida tahlil etilgan.

Abstract. This article analyzes the economic policy of the Russian Empire in the late nineteenth and early twentieth centuries and its impact on the markets of Samarkand. The study examines imperial administrative measures related to trade regulation, taxation policy, and the development of transport infrastructure, as well as their influence on the functioning of Samarkand markets. Based on historical sources, the article explores the role of markets in regional economic life, trade relations, and the specific features of their development.

Kalit so‘zlar: Samarqand, moliya, bank, savdogarlar, iqtisodiy, temir yo‘l, sanoat, ipak

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmi Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, Buxoro amirligining eng muhim ma’muriy, madaniy va iqtisodiy markazlaridan biri bo‘lgan Samarqand shahri tarixida tub burilish davri bo‘ldi. Rossiya imperiyasining mintaqadagi harbiy-siyosiy ekspansiyasi doirasida, Turkiston general-gubernatori K.P.fon Kaufman boshchiligidagi yirik qo‘shin 1868-yilning bahorida Samarqandga qarshi yurish boshladi. Cho‘ponota va Zirabuloq tepaliklarida kechgan qonli janglardan so‘ng, amirlik mudofaa kuchlari yengilib, shahar podsho qo‘shinlari tomonidan egallandi. Istiloga qarshi ko‘tarilgan shahar aholisining xalq qo‘zg‘oloni 1868-yilning 8-iyunida general Kaufman otryadi tomonidan shafqatsizlarcha bostirilib, Samarqandning an’anaviy bozorlari va hunarmandchilik rastalari alanga ostida qoldi. O‘sha yilning 23-iyunida imzolangan tinchlik shartnomasiga muvofiq, Samarqand va Kattaqo‘rg‘on hududlari amirlikdan rasman ajratilib, Rossiya imperiyasi tarkibidagi Zarafshon okrugiga birlashtirildi. Ushbu ma’muriy birlik 1887-yil 1-janvarda qabul qilingan yangi boshqaruv Nizomiga ko‘ra, Samarqand,

Kattaqo‘rg‘on, Jizzax va Xo‘jand uyezdlarini birlashtirgan va aholi eng zich joylashgan yirik Samarqand viloyatiga aylantirildi.[3;153]

Bosib olinishga qadar Samarqand o‘zining qulay iqlimi, unumdor yerlari va daryo bo‘ylaridagi yashilligi sababli tarixiy manbalarda, xususan, Abu Tohirxojaning “Samariya” asarida “firdavsmonand” ya’ni jannatmisol shahar deya ta’riflangan. Shahar ming yillar davomida shakllangan urbanizatsiya markazi sifatida an’anaviy karvonsaroylar va ixtisoslashgan bozorlar tarmog‘iga ega bo‘lgan. 1812-yilda mintaqaga kelgan ingliz vakili Mir Izzatulla shaharning kundan-kunga rivojlanayotgan, gavjum va faol savdo tizimiga ega ekanligiga guvohlik bergan. Biroq, imperiya mustamlakachiligi shaharning an’anaviy iqtisodiy asoslarini o‘zgartirib yubordi. General Kaufman tomonidan 1870-yilda tasdiqlangan bosh reja asosida an’anaviy “Eski shahar” yonida yashil xiyobonlar, ma’muriy binolar va antik-zamonaviy uslubdagi me’moriy inshootlardan iborat “Rus Samarqandi” qad ko‘tardi. Yangi shahar qismida imperiyaning yirik tijorat banklari, g‘arbona kafelar, dorixonalar, fotogalereyalar, restoranlar va kitob do‘konlari tashkil qilindi.[6;25-27]

Ushbu iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar xorijiy va mahalliy kuzatuvchilarning diqqat markazida bo‘ldi. Masalan, Varvara Duxovskaya o‘z esdaliklarida temir yo‘l qurilishiga qadar Moskvadan Toshkentga sayohat qilish Londondan Kalkutttagacha borishdan ham ko‘ra ko‘proq vaqt olganini bayon qilgan. 1888-yilda temir yo‘l yetib kelishi ortidan o‘lkaga yevropalik sayyohlar va olimlarning kelishi jaddalashdi, ular orasida Jorj Kurzon, Leon Koshar va Xyugges Kraft kabi shaxslar shahar bozorlari, madrasalari va ijtimoiy hayoti haqida qimmatli ma’lumotlar qoldirdilar. G‘arb tarixshunosi Demetriy Charlz Balgar 1879-yilda chop etilgan asarida Samarqandni o‘tmishda madaniy va diniy jihatdan London, Parij va Rim bilan tenglashgan hashamatli markaz sifatida e’tirof etgan bo‘lsa-da, rus istilosidan keyingi davrda shahar o‘z mustaqilligini yo‘qotib, xarob iqtisodiy holatga kelib qolganini qayd etgan. Mazkur tadqiqotda Rossiya imperiyasi iqtisodiy siyosatining Samarqand bozorlari, savdo logistikasi, an’anaviy hunarmandchilik inqirozi va moliya-kredit tizimiga ta’siri tizimli ravishda tahlil qilinadi.[7;10-29]

Tadqiqotda tarixiylik, ilmiylik, xolislik va qiyosiy-manbaviy tahlil tamoyillariga asoslangan tarixiy-tizimli metodologiyadan foydalanildi. Tadqiqotning empirik bazasini O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA) I-1-jamg‘armasi (Turkiston general-gubernatori kanselyariyasi) hujjatlari hamda Samarqand viloyati davlat arxivining 1843-fondiga (Samarqand viloyati statistika qo‘mitasi) tegishli arxiv materiallari tashkil etdi. Ushbu arxiv fondlaridan 1899–1904-yillardagi Samarqand viloyati uyezdlarining savdo aylanmalari, paxtachilik, uzumchilik va vino sanoati ko‘rsatkichlari, shuningdek, ulov transporti va grunt yo‘llari holatiga doir rasmiy statistik hisobotlar ajratib olindi.

O‘lka qishloq xo‘jaligi va agrar munosabatlarini baholashda "Справочная книжка Самаркандской области"ning 1894, 1897 va 1898-yillardagi sonlari (M. Virskiy tahriri ostida) tahlil qilindi. Ushbu nashrlar yordamida viloyatda paxta yetishtirish hajmi va uni Rossiya imperiyasi to‘qimachilik sanoati ehtiyojlariga moslashtirish jarayonlari o‘rganildi.[8;137-142] Shuningdek, xorijiy sayyohlar Leon Kosharning “Parij-Buxoro-Samarqand” memuarlari va Xyugges Kraftning “Rus Turkistoni bo‘ylab” (1902) asaridagi tavsiflar orqali shahar bozorlarining ijtimoiy-funksional holati solishtirildi. Mintaqada suv boshqaruvining byurokratlashuvini tahlil qilish maqsadida "Kaufman dreyfi" analitik modeli qo‘llanilib, uning an‘anaviy sug‘orish institutlarini deformatsiyaga uchratish mexanizmlari aniqlandi.

1888-yilda Transkaspiy (Zakaspiy) harbiy temir yo‘lining Samarqandgacha yetkazib qurib bitkazilishi va Amudaryo ustidan o‘tuvchi yog‘och ko‘prikning barpo etilishi mintaqa iqtisodiyotida tub burilish yasadi. Keyinchalik ushbu liniya 1899-yilda Toshkent va Andijon bilan bog‘lanib, "O‘rta Osiyo temir yo‘li" nomini oldi va o‘lka ichki bozorlarini yagona transport-kommunikatsiya tizimiga birlashtirdi. Temir yo‘ning paydo bo‘lishi yuk tashish tannarxini keskin pasaytirib, yuk aylanmasini 1887-yildan 1900-yilgacha bo‘lgan davrda **7.3 barobarga** oshirish imkonini berdi.[11;239-241] Samarqand viloyatidan Rossiya sanoat markazlariga asosan paxta xomashyosi, ipak, jun, qorako‘l teri, guruch (sholi) va quruq mevalar (mayiz) eksport qilindi. O‘z navbatida metropoliyadan tayyor to‘qimachilik mahsulotlari, shakar, metallurgiya ashyolari va kerosin olib kelindi.

Temir yo‘l mintaqaning tashqi savdo aloqalarini ham jadallashtirdi. Masalan, rus-afg‘on tranzit savdosi yuk aylanmasi 1896-1900 yillardagi 2.7 million rubldan 1911-yilga kelib **10.6 million rublga** yetdi. Arxiv hujjatlari tahliliga ko‘ra, 1904-yilda viloyat bo‘yicha paxta va uzum ishlab chiqarish yuqori sur‘atlarni ko‘rsatdi, bu esa bevosita temir yo‘l logistikasining rivojlanishi bilan bog‘liq edi.

Temir yo‘l logistikasi rivojlanishiga qaramay, uyezdlar va qishloqlar o‘rtasidagi ichki yuk tashishda an‘anaviy grunt yo‘llari va hayvon ulovlaridan foydalanish saqlanib qoldi. 1904-yilda viloyatda grunt yo‘llarining umumiy uzunligi 2105 verstni tashkil etgan bo‘lib, uni ta‘mirlash ishlari asosan mahalliy aholining majburiy natural mehnati (hosharlar) evaziga bajarildi va bunga bir yilda 84,608 nafar ishchi jalb qilindi. Ichki bozorlarda yuklarni tashishda foydalanilgan ulov hayvonlarining statistikasi quyidagicha edi:

Ulov hayvonining turi	Bozor iqtisodiyotidagi asosiy vazifasi
Eshak	Shahar ichki mayda yuk tashuvlari va mahalla bozorlari logistikasi
Ot	Yo‘lovchilar va pochmani shahararo transport tizimida tashish

Tuya	Uzoq masofali karvon savdosi va og‘ir xomashyolarni etkazib berish
Xachir	Tog‘li hududlardan bozorlarga tovarlar etkazib berish

Manba: 1904-yilgi ma‘muriy-statistika hisoboti materiallari.

Rossiya imperiyasi iqtisodiy ekspansiyani qo‘llab-quvvatlash uchun mintaqada moliya-kredit muassasalari tarmog‘ini yaratdi. 1874-yilda imperator Aleksandr II ruxsati bilan ochilgan Rossiya Davlat bankining Toshkent bo‘limi Turkistonda bank tizimining asosi bo‘ldi. Keyinchalik, **1890-yilda** Davlat bankining Samarqand bo‘limi ish boshladi.[5;40-48] Davlat banki butun Rossiya savdo kapitaliga xizmat qilib, mintaqadagi veksellarni hisobga olish operatsiyalari hajmini 1875-yildagi 46.1 ming rubldan 1895-yilga kelib **1.6 million rublga** yetkazdi. 1907-yilga kelib esa bir kunlik amaliyot hajmi 5 million rublni tashkil qildi.

Mintaqadagi pul aylanmasi ko‘rsatkichlariga ko‘ra, Samarqand bo‘limi eng yirik moliya tugunlaridan biriga aylandi. Arxiv ma‘lumotlariga ko‘ra, Davlat banki bo‘limlarining pul aylanmasi hajmi bo‘yicha taqsimoti quyidagicha ko‘rinishga ega edi:

Bank bo‘limining nomi	Pul aylanmasi hajmi (ming rubl)	Faoliyat yo‘nalishi
Qo‘qon bo‘limi	19,908	Farg‘ona paxta xaridini va eksportini moliyalashtirish
Toshkent bo‘limi	Ma‘lumot yo‘q	Mintaqaning markaziy ma‘muriy-moliya boshqaruvi
Samarqand bo‘limi	3,779	Don, paxta, uzumchilik va ipak eksportini ta‘minlash
Buxoro bo‘limi	3,458	Buxoro amirligi va Rossiya savdo aloqalari vositachiligi
Ashxobod bo‘limi	3,220	Kaspiyorti hududidagi harbiy-strategik va tijorat operatsiyalari
Andijon bo‘limi	1,436	Mahalliy paxta yetishtiruvchi tarmoqlarni kreditlash

Manba: Turkistondagi Davlat banki bo‘limlari aylanmasiga oid arxiv materiallari.

Davlat bankidan tashqari, mintaqaga yirik xususiy aksiyadorlik banklari ham kirib keldi. 1903-yilda ochilgan Rus-Xitoy banki 1910-yilda Shimoliy bank bilan birlashib, **Rus-Osiyo aksiyadorlik-tijorat banki** nomini oldi va Turkistondagi eng yirik monopol moliya tashkilotiga aylandi. Ushbu bank mintaqadagi eng yirik "Vadeev" savdo-sanoat o‘rtoqligini o‘z nazoratiga olib, 700-800 million rubllik kredit aylanmasini amalga oshirdi.[10;209-215] Mahalliy savdogarlar va oddiy aholining pul ehtiyojlarini qondirish maqsadida o‘zaro kredit shirkatlari va garovxonalar (lombardlar) ham tashkil etildi; jumladan, 1897-yilda Samarqandda 3 ta garovxona bo‘limi ochilgan edi. Namangan shahrida esa 1911-yilda milliy sarmoyador Yusuf Kulolboyning xususiy banki tashkil etilgan bo‘lsa-da, u yirik rus banklari bilan raqobatlasha olmadi.

Hunarmandchilikning inqirozi va shahar bozorlari tuzilmasi

Samarqand shahri an’anaviy ravishda muayyan hunarmandchilik turlariga ixtisoslashgan va o‘z-o‘zini boshqaradigan guzarlardan (mahallalardan) iborat edi. XIX asr oxirida shaharda 96 ta guzar mavjud bo‘lib, ularning nomlanishi ixtisoslashuvini aks ettirgan: Kulolonda (kulollar), Sharbatdorda (qandolatchilar), So‘zangaronda (igna ishlab chiqaruvchilar), Zargaronda (zargarlar). Aholi zichligi kichik guzarlarda 450-800 kishini tashkil etgan bo‘lsa, yirik yahudiy guzarlarida 2300-2500 kishigacha, Lolazorda 2000 va Qozi G‘afurda 1000 kishigacha yetgan.[2;44-52]

Rossiya zavod-fabrika mahsulotlarining temir yo‘l orqali ko‘p miqdorda kirib kelishi mahalliy kosibchilik ustaxonalarini raqobatga bardosh bera olmay yopilishiga olib keldi. Agar 1888-yilda Samarqandda 1300 dan ortiq an’anaviy ustaxona va 1969 ta mayda hunarmandchilik korxonasi ishlagan bo‘lsa, 1907-yilga kelib ularning umumiy soni **963 taga** tushib qoldi. 1908-yilgi rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, viloyatda jami ishlab chiqarish hajmi 2,103,749 rubl bo‘lgan 8034 ta mayda sanoat muassasasi ro‘yxatga olingan bo‘lib, ularda 11,037 nafar ishchi band bo‘lgan. Metropoliya gazlamalarining arzonligi sababli ipak to‘qish va ipak o‘rash korxonalarini 1905–1908-yillar oralig‘ida keskin inqirozga uchrab, ularning soni 134 taga qisqardi. 1910-yilga kelib an’anaviy mayda ustaxonalarning umumiy soni 401.4% ga kamayib ketdi.

Shu bilan birga, igna ishlab chiqarish kabi an’anaviy kasblar butunlay yo‘qolib, ularning o‘rniga choy qadoqlash kabi yangi mustamlakachilik savdosi bilan bog‘liq kasblar vujudga keldi. Biroq, milliy ust-boshlar, cholg‘u asboblari va maishiy anjomlar tayyorlash kabi tor segmentlar o‘z yashovchanligini saqlab qoldi. Masalan, mahalliy ko‘nchilar chet eldan keltirilgan kimyoviy bo‘yoqlardan foydalanib, "amirkon" deb nomlangan sifatli charm mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydilar.[9;52-56]

"Kaufman dreyfi" va irrigatsiya boshqaruvining byurokratlashuvi

Rossiya imperiyasining Samarqand viloyatidagi iqtisodiy islohotlari qishloq xo‘jaligini, xususan, paxtachilikni rivojlantirish orqali imperiya yengil sanoatini arzon xomashyo bilan ta‘minlashga yo‘naltirilgan edi. Paxta ekiladigan maydonlarning kengayishi sug‘orish tizimi va suv resurslaridan samarali foydalanishni talab qildi. Biroq, chor ma‘murlarining an‘anaviy dehqonchilik munosabatlariga aralashuvi uzoq yillik barqaror suv boshqaruv institutlarining buzilishiga olib keldi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rus bosqiniga qadar Zarafshon vodiysida suv taqsimoti va irrigatsiya ishlari jamoaviy va markazlashmagan o‘z-o‘zini boshqarish tizimi orqali amalga oshirilgan. Miroblar va sug‘orish xodimlari bevosita dehqonlar jamoasi tomonidan saylangan va ularga hisobdor bo‘lgan. Rossiya mustamlakachilik ma‘murlari tomonidan joriy etilgan va ilmiy adabiyotlarda "**Kaufman dreyfi**" (Kaufman drift) deb ataluvchi boshqaruv islohoti ushbu demokratik va jamoaviy saylov tizimini butunlay tugatdi. Miroblar va irrigatsiya xodimlari davlat tomonidan tayinlanadigan va qat‘iy ish haqi oladigan byurokratik xizmatchilarga aylantirildi.

Ushbu islohot suv boshqaruvidagi adolat va samaradorlik mezonlarini yo‘qotib, tizimda korrupsiya va byurokratik suiiste‘molliklarning rivojlanishiga zamin yaratdi. Miroblar endilikda dehqonlar oldidagi mas‘uliyatini yo‘qotib, faqat yuqori turuvchi mustamlakachi ma‘murlarning buyruqlarini bajaruvchi shaxslarga aylandilar. Sug‘orish tizimidagi bunday inqirozlarni faqat an‘anaviy jamoaviy saylov mexanizmlarini qayta tiklash yoki suv resurslarini xususiyashtirish orqali bartaraf etish mumkin edi, biroq chor hukumati markazlashgan ma‘muriy bosimni oshirish yo‘lidan bordi.[9;252-256]

Bozordagi tabaqalanish va sudxorlik asorati

Moliya-kredit tizimining Samarqand bozorlariga kirib kelishi mahalliy aholi o‘rtasida jiddiy ijtimoiy tabaqalanish va ekspluatatsiyani kuchaytirdi. Rossiya banklari asosan yirik rus savdogarlari va imperiyaga xizmat qiluvchi korporatsiyalarni moliyalashtirishga ixtisoslashgan edi. Oddiy dehqonlar va mayda paxtakorlar uchun ushbu banklardan kredit olish imkoniyati deyarli yo‘q edi, chunki banklar garov sifatida faqat imperiya qonunlariga mos keluvchi yirik mulklarni tan olgan.

Bu holat bozorda sudxorlik va asoratli kredit zanjirlarini yuzaga keltirdi. Rossiya Davlat banki vositachi banklar va yirik firmalarga 5.2% yillik stavkada kredit ochgan bo‘lsa, ushbu vositachilar sarmoyadorlarga mablag‘ni 8-9% hisobida bergan. Ammo, yakuniy bo‘g‘in bo‘lgan mayda dehqonlarga sudxorlar orqali yetib borguncha kredit stavkasi **40-50% ga** ko‘tarilgan. [1;90-95] Ushbu og‘ir moliyaviy bosim (dastlabki foizdan **5-7 barobar** yuqori) dehqonlarni yetishtiradigan hosilini hali pishmasdan oldin o‘ta arzon narxda sotishga majbur qildi va ularning iqtisodiy asoratini chuqurlashtirdi.

Shaharning ikki qiyofali rivojlanishi va ijtimoiy-madaniy reaksiyalar

Imperiya iqtisodiy siyosati shaharsozlik va ijtimoiy hayotda ham o‘z aksini topdi. "Rus Samarqandi" qismining zamonaviy va yashil xiyobonlari, antik portiklar va modern uslubidagi bank binolari eski shaharning zich va oddiy uylaridan keskin farq qilardi. Karvonsaroylar an’anaviy logistika va madaniy aloqalar markazi sifatida o‘z vazifasini qisman saqlab qolgan bo‘lsa-da, sovet hokimiyati yillariga kelib ularning funksional transformatsiyasi va me’moriy qiyofasini yo‘qotishi boshlandi.

Shahar iqtisodiyoti va ijtimoiy tizimining bunday o‘zgarishi mahalliy ziyolilar orasida kuchli ijtimoiy-madaniy reaksiyani keltirib chiqardi. G‘arb olimlari, jumladan, Genri Norman o‘z xotiralarida Samarqand madrasalarini o‘zining talabalarni turar joy bilan ta’minlashi, dars tayyorlash xonalari va ta’lim uslubi bo‘yicha ingliz kollejlari hamda Oksford, Kembrij universitetlariga juda o‘xshash bo‘lganini yozgan. Biroq, mustamlaka tizimi ushbu milliy ta’lim institutlarining moddiy va iqtisodiy asoslarini zaiflashtirdi.

Bunga javoban Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy va Siddiqiy Ajziy kabi ma’rifatparvarlar yetakchiligida **Jadidchilik harakati** shakllandi. Jadidlar jamiyatni mustamlaka asoratidan qutqarish uchun faqat diniy emas, balki zamonaviy iqtisodiy, huquqiy va dunyoviy bilimlarni egallash, yangi usuldagi maktablarni tashkil etish va milliy burjuaziyani shakllantirish zarurligini anglab etdilar.[4;111-120] Ular milliy hunarmandlar va savdogarlarni birlashishga va zamonaviy moliya asboblardan foydalanishga chaqirdilar .

Xulosa

Rossiya imperiyasining XIX asr oxiri va XX asr boshlarida olib borgan iqtisodiy siyosati Samarqand va uning atrofidagi hududlarni Rossiya sanoat markazlari uchun xomashyo yetkazib beruvchi va tayyor tovarlarni sotuvchi mustamlaka bozoriga aylantirishga qaratildi. 1888-yilda temir yo‘lining kirib kelishi savdo aylanmasini keskin oshirib, infratuzilmani modernizatsiya qilgan bo‘lsa-da, u mahalliy kosibchilik ustaxonalarining ommaviy yopilishiga va an’anaviy hunarmandchilikning inqiroziga sabab bo‘ldi.

Moliya-kredit sohasida o‘rnatilgan bank monopoliyasi va asoratli sudxorlik zanjiri (40-50% li kreditlar) dehqonlarni qashshoqlashtirib, ijtimoiy tabaqalanishni kuchaytirdi. Agrar sohadagi byurokratik islohotlar, xususan, "Kaufman dreyfi" an’anaviy va adolatli suv taqsimoti tizimini buzib, irrigatsiya boshqaruvida korrupsiya va inqirozlarni keltirib chiqardi. Biroq, ushbu tizimli iqtisodiy va ijtimoiy tazyiqlar mahalliy jamiyat ichida o‘z-o‘zini asrash va rivojlantirish intilishlarini kuchaytirdi, bu esa o‘lkada milliy ozodlik va ma’rifatparvarlik asosi bo‘lgan Jadidchilik harakatining shakllanishiga ijobiy turtki berdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. G.B.Normurodova. “XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Samarqand viloyati aholisi.” Samarqand. 2010 y . – 90-95 b
2. G.B.Normurodova. “XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Samarqand viloyati aholisining ijtimoiy stratifikatsiyasi” Toshkent. “Yangi Nashr” 2013. – 144-157 b
- 3 N. Musayev “XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkistonda sanoat ishlab chiqarishining shakllanishi.” Toshkent. 2008 y . – 153 b
4. A. Kuraxmedov. “XIX asr ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida Samarqandning iqtisodiy va madaniy hayoti.” Toshkent. “Fan”. 2009 y. – 111-120 b
5. O.J.Irisqulov. “Rossiya mustamlakasi davrida Samarqand uyezdi paxta plantatsiasi faoliyati tarixidan. O‘zbekiston tarixining dolzarb masalalari.” Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Andijon. 2017. – 120-148 b
6. D.Ziyoyeva. “O‘zbekiston shaharlari XIX asrning ikkinchi yarmi- XX asr boshlarida. Toshkent. 2013 y. 25-27 b
- 7.Irisqulov.O.J. “XIX asrda Samarqandda qog‘oz hunarmandchiligi”.O‘zbekiston davlatchiligi tarixi masalalari ilmiy to‘plami SamDU. 2015. – 10-29 b
- 8.Ахмеджанова З.К. К истории строительства железных дорог в Средней Азии (1880-1917 гг). Т., 1965.- С.137-142
- 9.G‘.A.Ahmadjanov. Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoda (Chorizmning Turkistondagi mustamlakachilik siyosati tarixi va tarixnavisligi) Toshkent. 2003 y. 252-256 b.
- 10.Аминов А.М. Бабаходжаев А. “Экономическое, политические последствия развитие Средней Азии (колониальный период).” – Ташкент. Узбекистан. 1966 г . С. 209-215
- 11 Н.А.Абдурахимова , Ф.Эргашев. “Туркистонда Чор мустамлака тизими” Тошкент. 2002 й; 239-241 б